Yana bir o‘zbek olimi Butunjahon Fanlar akademiyasi a’zoligiga saylandi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti nazariy astrofizika bo‘limi boshlig‘i, fizika-matematika fanlari doktori, professor Ahmedov Bobomurat Jurayevich Butunjahon Fanlar akademiyasi (The *World Academy of Sciyences*, TWAS) a’zoligiga saylandi.

TWAS akademiyasi 1983 yilda Nobel mukofoti laureati, nazariyotchi fizik olim Abdus Salam tashabbusi bilan dunyoda fan va texnikaning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shish maqsadida tashkil etilgan. Uning a’zosi bo‘lish – bu jahon miqyosidagi olim bo‘lishni anglatadi.

Butunjahon fanlar akademiyasining 2018-yil 27-noyabrda Italiyaning Triyeste shahrida bo‘lib o‘tgan 28-Bosh assambleyasida dunyoning 104 ta mamlakatidan 46 nafar yangi a’zolar saylangan, shular orasida O‘zbekiston Respublikasidan B.J.Axmedov ham bor.

Ahmedov Bobomurat Jurayevich – fizika-matematika fanlari doktori, professor, Astronomiya institutining nazariy astrofizika bo‘limi boshlig‘i, shuningdek, O‘zbekiston Milliy Universiteti professori hamdir. Uning asosiy ilmiy ishlari gravitatsiya nazariyasi, umumiy nisbiylik nazariyasi, relyativistik astrofizika va kompakt gravitatsion obyektlar fizikasi sohasidadir. U gravitatsiya nazariyasi, maydonlar nazariyasi, relyativistik va yadro astrofizikasi sohalarida yuqori ilmiy-pedagogik tajribaga ega va shu kungacha uning muallifligiva hammuallifligida 200 dan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan.

Bobomurat Ahmedov – 2017-yilda ilmiy ishlariga eng ko‘p havola qilingan muallif («Highly Cited Author», Web of Sciyence), 2018 yilda esa “Yil olimi-2018”(«Researcher of the Year», Scopus) hamda 2012 yilda “Mehnat shuhrati” orderi bilan mukofotlangan. Shuningdek, u Markaziy Dehli Universitetining faxriy professori, Italiyaning Triyeste shahridagi Xalqaro nazariy fizika markazining relyativistik astrofizika va gravitatsiya sohasida mantaqaviy koordinatori, Hindistonning Universitetlararo astronomiya va astrofizika markazi va TATA fundamental tadqiqotlar institutining a’zosi hamdir. Bundan tashqari, olim CNR, DAAD, TWAS, ICTP, Volkswagen, Erasmus+ kabi bir qator nufuzli tashkilotlarning xalqaro grantlari rahbari va 20 dan ortiq xalqaro nufuzli ilmiy jurnallar taqrizchisi va "Arabian Journal of Mathematics" Springer ilmiy jurnalining redaktoridir.

Bobomurat Ahmedov O‘zbekistonda relyativistik astrofizika sohasida yangi ilmiy maktab yaratgan bo‘lib, u allaqachon xalqaro e’tirofga sazovor bo‘lgan va ushbu maktabdan bir qator fan doktorlari va fan nomzodlari yetishib chiqqan, ko‘plab iste’dodli yosh olimlar tarbiyalanib kelmoqda.